

**O'ZBEK BOLALAR FOLKLORI NAZARIY RIVOJIDA OXUNJON SAFAROV
QARASHLARINING AHAMIYATI****O'rino Maftuna No'mon qizi**
OXU o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar folklorshunosligining yuzaga kelishi hamda nazariy rivojida Oxunjon Safarovning tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan. Olim umri davomida bolalar folklori namunalarini xalq og'zidan to'plab, ularni tekstologik jihatdan tahlil qilib, turli to'plamlarda nashr ettirdi. Natijada 10580 satrni o'z ichiga olgan "Boychechak", 3000 satrga yaqin "Alla-yo alla", 1000 tacha o'yindan iborat "Chittigul" (2005), o'yinlar tasnifi aks etgan "O'zbek xalq bolalar o'yinlari" (2011) to'plamlari o'zbek bolalar folklori xazinasini boyitdi.

Kalit so'zlar. Bolalar folklori, qo'shiq, o'yin, alla, erkalam, og'zaki ijod, badiiy ijod.

Аннотация. В данной статье рассматривается возникновение детского фольклора и роль Охунджона Сафарова в его теоретическом развитии. На протяжении всей своей жизни ученый собирал образцы детского фольклора из уст народа, текстологически анализировал их и публиковал в различных сборниках. В результате пополнились сборники «Бойчечак», содержащий 10580 строк, «Алла-йо алла» около 3000 строк, «Читтигул» (2005), состоящая из 1000 игр, «Узбекские народные детские игры» с классификацией игр» (2011) сокровище узбекского детского фольклора.

Ключевые слова. Детский фольклор, песня, игра, алла, ласка, словесное творчество, художественное творчество.

Annotation. This article discusses the role of Okhunjon Safarov in the emergence and theoretical development of children's folklore. Throughout his life, the scientist collected samples of children's folklore from the mouth of the people, analyzed them textually, and published them in various collections. As a result, the collections "Boychechak" containing 10,580 lines, "Alla-yo alla" containing about 3,000 lines, "Chittigul" (2005) consisting of about 1,000 games, and "Uzbek folk children's games" (2011) containing a classification of games enriched the treasury of Uzbek children's folklore.

Key words. Children's folklore, song, game, alla, caressing, verbal creation, artistic creation.

Folklorshunoslikning muhim tarmog'i hisoblangan bolalar og'zaki poetik ijodi uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk" asarida "yaling'u", "qarag'uni" kabi bolalar o'yini haqidagi fikrlar uchrashi bu mulohazani tasdiqlaydi. O'zbek bolalar folklorining ilmiy-nazariy shakllanishi esa XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bolalar folklori janriy tarkibi, genezisi va badiiyati tadqiqiga Buxoro folklorshunoslik maktabi asoschisi Oxunjon Safarovning xizmatlari munosib hissa qo'shdi.

Oxunjon Safarov salkam yarim asrga yaqin muddat davomida o'zbek bolalar folkloriga doir materillarni to'plab, turli to'plamlarga darj qildi. Aytish joizki, folklor namunalarini to'plash ancha mashaqqat talab etadi. Buning uchun sabr-toqat, kuchli iroda, xalq bilan samimiy munosabatda bo'la olish, kirishimlilik, bedorlik, tinimsiz mehnat, bir so'z bilan ifodalash mumkin bo'lsa, katta fidoiylilik talab etiladi. Oxunjon Safarovda bu xislatlar mujassam edi. U imkon qadar xalq og'zida yashayotgan merosni tezroq to'plashga intildi, avlodlarga qoldirish istagi bilan yondi. O'zi uzoq yillar faoliyat ko'rsatgan ta'lim dargohi Buxoro davlat universiteti filologiya va pedagogika fakulteti talabalari bilan ommaviy safarbarlikda yelkama-yelka turib,

qishloqma-qishloq kezdi. Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo, qisman Xorazm va Turkmaniston Respublikasining Farob tumani hamda Chorjo'y shaharlari va qishloqlarida bolalar folkloriga doir kuzatish ishlarini olib bordi, yozib oldi. Natijada shu yillarda (XX asrning 70-80-yillarida) yigirma ming satr atrofida bolalar qo'shiqlari, mingdan ziyod bolalar o'ynlari to'plandi. 10580 satrni o'z ichiga olgan "Boychechak", 3000 satrga yaqin "Allayo alla", 1000 tacha o'yindan iborat "Chittigul"(2005), o'yinlar tasnifi aks etgan "O'zbek xalq bolalar o'yinlari"(2011) to'plamlari o'zbek folklori xazinasini boyitdi. To'plangan manbalar asosida uch tomlik "O'zbek folklori ocherklari" fundamental tadqiqotining birinchi jildi uchun "Bolalar folklori" bo'limini yozib berdi. O'zbek bolalar folklorining alla, aytim-olqish, bolalar taqvimi va marosimi qo'shiqlari hamda bolalar o'yinlaridan tanlab olingan bir qator namunalarini rus va ingлиз tillariga tarjima qildirib, "Oyning ikki pallasi"(Toshkent), "O'zbek xalq qo'shiqlari"(Leningrad), "O'zbek xalq ijodiyoti javohirlari"(mazkur to'plamlar rus va ingлиз tillarida nashr etilgan) to'plamlarida chop etilishiga muvaffaq bo'ldi.

"Boychechak" to'plami ko'p tomlik "O'zbek xalq ijodi" ruknida tayyorlangan bo'lib, hajmi nihoyatda boy edi. Ammo o'sha davr mafkurasi (1984) asosida to'plam tarkibidan diniy mavzudagi allalar chiqarib tashlandi. O'rniqa qashqadaryolik taniqli folklorshunos olim Kamol Ochilov tomonidan to'plangan mehnat qo'shiqlari kiritildi. Shu sabab to'plam ikki so'ngso'z bilan ta'minlangan. "Mehnat qo'shiqlari" qismi uchun K.Ochilov, bolalar folklori qismi uchun esa O.Safarov "Bolalik kuylasa – olam munavvar" sarlavhali so'ngso'z yozishgan. Unda olim(O.Safarov) o'zbek bolalar folklorining qadimiyligi, an'anaviyligi, uning yaratuvchilari va ijrochilari, to'planishi, nashr qilinishi va o'rganilish tarixi, tasniflanishi, turlari haqida qimmatli fikrlarini aks ettirgan. Bu haqda ustozning to'ng'ich shogirdi, professor Darmonoy O'rayeva monografiyasida batafsil ma'lumot keltirilgan [G'. Jahongirov, 1975. 95- b.]. To'plamga respublikamizning turli hududlaridan turli vaqtarda H.Zarif, M.Alaviya, Z.Husainova, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, G'.Jahongirov, S.Ro'zimboyev, H.Razzoqov va boshqalar tomonidan to'plangan qo'shiqlar, folklor asarlari ham kiritilgan. Ana shu materiallar H.Zarif nomidagi folklor arxivida 287, 288, 289, 948, 1138, 1522, 1630, 1636, 1638, 1665, 1668-inventar raqamlari ostida saqlanmoqda¹.

"Boychechak" to'plamini varaqlar ekansiz, o'zbek bolalar folklorining nihoyatda boyligini, xilma-xil janrlardan tarkib topgan yaxlit badiiy tizim ekanini anglaysiz. Unda bolalar folklori namunalari janrlari va janriy o'ziga xosligi inobatga olingan holda quyidagicha joylashtirilgan: 1. Beshik qo'shiqlari. 2. Suyish qo'shiqlari. 3. Mavsum va marosim taronalari. 4. Hukmlagichlar. 5. Qo'riqchilik da'vatlari. 6. Qo'shiq o'yinga chorlaydi. 7. Aytishma o'yinlar. 8. O'yin qo'shiqlar. 9. Turli qo'shiqlar. 10. Aytishuvlar. 11. Bolalar repertuaridagi o'tmishev davr qo'shiqlari. 12. Bolalar repertuaridagi sovet davri qo'shiqlari. 13. Uzun qo'shiqlar. 14. Satirik va yumoristik qo'shiqlar.

Yuqoridagi ro'yxat shunchaki mundarija emas, aslida olimning uzoq izlanishlarini o'zida aks ettirgan murakkab bolalar folklorining birinchi ilmiy tasnifidir.

O.Safarov bolalar folklorini genetik asoslariga ko'ra uch qismdan tarkib topgan hodisa sifatida baholaydi:

1. Erkalash poeziyasi. Bunga alla, aytim-olqish, ovutmachoq, erkalama, qiziqmachoqlarni kiritib, ularda erkalash leytmotiv bo'lganligini ta'kidlaydi. Erkalash poeziyasi namunalarini ijro maqsadi, o'rni va bola yoshiga munosabatiga ko'ra ikki guruhga ajratadi. Birinchisi beshik qo'shiqlari bo'lib, unga allalar, etnografik mazmundagi aytim olqishlar(uch yoshni to'ldirguncha aytildi)

kirsa, ikkinchisi suyish qo'shiqlari deb atalib, erkalamaga, ovutmachoq, qiziqmachoq, qaytarmachoq(6-7 yoshga to'lguncha aytildi) kabi janrlarni o'z ichiga oladi.

2. Bolalar taqvimi va uni ifoda etuvchi marosim qo'shiqlari. Bahor, yoz, kuz, qish mavsumlari bilan bog'liq bunday qo'shiqlarning bir qismi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot taqozosiga ko'ra kattalar repertuaridan bolalar repertuariga o'tib qolgan. Qolaversa, ibtidoiy ajdodlarimizning animistik va totemistik e'tiqodlari asosida

shakllanib, endilikda o'sha mohiyatni yo'qotgan yalinchoq va hukmlagich janrlari bolalar repertuarida saqlanib qolgan.

3. Bolalarning o'z ijodkorligi va ijrochiligi hosilasi bo'lgan qo'shiqlar va o'yinlar.

O.Safarov o'zbek bolalar folklorining asosini o'yin va qo'shiqlar tashkil etishini, ularni so'z va harakatning nisbatiga ko'ra bolalarning maishiy qo'shiqlari hamda bolalarning o'yin folklori kabi guruhlarga ajratish kerakligini ta'kidlaydi.

Olimning o'zbek bolalar folklori namunalarini toplash va tadqiq etishdagi xizmatlari Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston respublikalarida ham bolalar folklori tadqiqotchilariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Qozoq bolalar poetik folklorini tadqiq qilgan folklorshunos Kenjexan Matjanov yo'llagan mana bu e'tirof ham fikrimizni tasdiqlaydi: "Hurmatli Oxunjon og'a! Men sizning tadqiqotlaringiz bilan to'la tanishdim. Qozoq bolalar folklori to'g'risidagi ushbu tadqiqotimni yozishda sizning ishlaringiz zo'r ko'mak berdi" [Sh.Galiyev, 1998, 85-b.]. Shu dalilning o'ziyoq O.Safarovning bolalar folklorshunosligi sohasidagi tadqiqotlari turkiy xalqlarda bolalar folklorini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rsatib turibdi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Жаҳонгиров Ф. Ўзбек болалар фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – 102 б.
2. Сафаров О., Сафарова Х. Қўшиқ билан зийнатланган ўзбек болалар ўйинлари. "Совет мактаби", №2, 1985. 32-33-б.
3. Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклори. – Тошкент: Фан, 1998. – 96 б.
4. Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. –147-б.
5. Авезов С. Санама жанри табиати ва бадиияти. Диссертация автореферати. – Тошкент, 2004. –19 б.